

AKSIYADORLIK JAMIYATLARI INNOVATSION FAOLIYATINI ESG TAMOYILLARI ASOSIDA MOLIALASHTIRISH

Baratova Zumrat Xalmetjanovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslubiyotini rivojlantirishning joriy bosqichlarida moliyaviy-investitsion strategiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga samarali tadbiriq etish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Aksiyadorlik jamiyatlarining istiqbolda moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy mustaqilligini ta'minlanishi mukammal ishlab chiqilgan strategiyalarga ko'p jihatdan bog'liq hisoblanadi. Shu bilan birga sohani yanada rivojlantirishda institutsional-tashkiliy asoslar ham alohida ahamiyatga ega bo'lib keyingi yillarda bu borada ham qator ijobiy natijalarga erishilmoqda. Qayd etib o'tish kerakki, jahon iqtisodiyotida barqaror rivojlanish tamoyillarining ahamiyati so'nggi yillarda ortib bormoqda. Global moliya bozorlarida investorlar nafaqat kompaniyalarning moliyaviy natijalariga, balki ularning atrof-muhitga ta'siri, ijtimoiy mas'uliyati va boshqaruv tizimi samaradorligiga ham alohida e'tibor qaratmoqda. Shu sababli korporativ boshqaruvda ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari muhim strategik yo'nalish sifatida shakllanmoqda.

Aksiyadorlik jamiyatlari iqtisodiyotning muhim institutsional subyektlari bo'lib, ular innovatsion rivojlanishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Innovatsion faoliyatni rivojlantirish esa yangi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va raqobatbardosh mahsulotlar yaratish imkonini beradi. Biroq innovatsion loyihalarni amalga oshirish ko'pincha katta moliyaviy resurslarni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, aksiyadorlik jamiyatlari innovatsion faoliyatini moliyalashtirishda ESG tamoyillarini qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. ESG asosida moliyalashtirish kompaniyalarga uzoq muddatli investitsiyalarni jalb qilish, risklarni kamaytirish va korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish imkonini beradi.

So'nggi yillarda dunyo tajribasida aksiyadorlik jamiyatlari innovatsion loyihalarini moliyalashtirishda ESG tamoyillari keng qo'llanilmoqda. Xususan, aksariyat yirik korporatsiyalar yashil texnologiyalar, energiya samaradorligi va raqamli transformatsiya sohalariga investitsiyalar hajmini bosqichma-bosqich oshirmoqda (1-jadval).

ESG asosidagi moliyalashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri yashil moliya instrumentlari hisoblanadi. Yashil obligatsiyalar, barqaror rivojlanish obligatsiyalari va ESG fondlari orqali innovatsion loyihalar uchun mablag'lar jalb qilinmoqda. Mazkur instrumentlar investorlar uchun ham jozibador bo'lib, ular barqaror rivojlanishga hissa qo'shadigan loyihalarni qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. O'zbekistonda ham aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha samarali islohotlar amalga oshirilmoqda. Energetika, sanoat, telekommunikatsiya va transport sohalaridagi

aksiyadorlik jamiyatlari ishlab chiqarish jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali innovatsion rivojlanishga intilmoqda.

1-jadval

Rivojlangan davlatlar kompaniyalari innovatsion faoliyatini ESG tamoyillari asosida moliyalashtirish amaliyoti⁷⁶

Mamlakat/ mintaqa	ESG moliyalashtirish instrumenti	Innovatsion yo'nalishlar	Amaliy natijalar va ko'rsatkichlar
Yevropa Ittifoqi	Yashil obligatsiyalar (Green Bonds), barqaror rivojlanish obligatsiyalari	Qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi, "yashil" transport	2023-yilda yashil obligatsiyalar bozori hajmi 450 mlrd. dollardan ortiq; karbon chiqindilari ayrim sanoat tarmoqlarida 20-30 % ga kamaygan
AQSh	ESG investitsiya fondlari, venchur kapital fondlari	Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, CleanTech	ESG aktivlari hajmi 8 trln. dollardan ortiq; CleanTech startaplariga investitsiyalar yiliga 60-70 mlrd. dollar
Yaponiya	Yashil kreditlar va ESG obligatsiyalari	Energiya tejevchi texnologiyalar, ekologik ishlab chiqarish	Yashil moliya instrumentlari hajmi 300 mlrd. dollarga yaqin; energiya samaradorligi sanoatda 15-20 % ga oshgan
Janubiy Koreya	Barqaror investitsiya fondlari va davlat qo'llab-quvvatlovchi dasturlar	Raqamli transformatsiya, aqli ishlab chiqarish (Smart industry)	"Green New Deal" dasturi orqali 60 mlrd. dollardan ortiq investitsiya jalb qilingan
Xitoy	Yashil moliya instrumentlari, davlat banklari orqali ESG kreditlari	"Yashil" energetika, elektr transport, ekologik infratuzilma	Yashil kreditlar hajmi 2 trln. dollardan ortiq; elektr transport ishlab chiqarish yiliga 30% dan ortiq o'smoqda

Shuningdek, innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda ESG tamoyillarini keng joriy etishda ayrim kamchilik va muammolar mavjud bo'lib, mazkur muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga doir tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Aksariyat aksiyadorlik jamiyatlarida ESG hisobotlari, ekologik monitoring tizimi va ijtimoiy mas'uliyat ko'rsatkichlari yetarli darajada rivojlanmaganligi kuzatiladi. Bu esa xalqaro investorlarni jalb qilish imkoniyatlariga salbiy ta'sir etish bilan birga, aksiyadorlik jamiyatlari xususiylashtirish jarayonlarini ortaq surishi mumkin.

Bizningcha, aksiyadorlik jamiyatlari innovatsion faoliyatini ESG tamoyillari asosida moliyalashtirishni rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Birinchidan, aksiyadorlik jamiyatlarida ESG standartlari asosida korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish zarur. Bu jarayonda shaffoflikni oshirish, manfaatdor tomonlar bilan samarali muloqotni yo'lga qo'yish hamda ekologik mas'uliyatni kuchaytirish muhim hisoblanadi. Ikkinchidan, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun yashil obligatsiyalar va ESG investitsiya fondlarini rivojlantirish kerak. Bu orqali kompaniyalar uzoq muddatli moliyaviy resurslarni jalb qilish

⁷⁶ <https://treasury.worldbank.org/en/about/unit/treasury/ibrd/ibrd-green-bonds>

imkoniyatiga ega bo'ladi. Uchinchidan, aksiyadorlik jamiyatlarida ESG hisobot tizimini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Bunday hisobotlar kompaniyaning ekologik, ijtimoiy va boshqaruv faoliyatini baholash imkonini berish bilan birga investorlar uchun zarur axborot manbai hisoblanadi. To'rtinchidan, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish maqsadida davlat tomonidan soliq imtiyozlari va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish maqsadga muvofiq. Beshinchidan, xalqaro moliya institutlari va investorlar bilan hamkorlikni rivojlantirish orqali ESG tamoyillariga mos innovatsion loyihalarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish amaliyotini jadallashtirish kerak.

Xulosa o'rnida qayd etish kerakki, aksiyadorlik jamiyatlari innovatsion faoliyatini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Innovatsion loyihalarni ESG tamoyillari asosida moliyalashtirish esa korporativ boshqaruv sifatini yaxshilash, ekologik barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy mas'uliyatni oshirishga xizmat qiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, aksiyadorlik jamiyatlarida ESG tamoyillarini joriy etish innovatsion rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek, yashil moliya instrumentlarini rivojlantirish, ESG hisobot tizimini takomillashtirish hamda xalqaro tajribani joriy etish ushbu jarayonning samaradorligini oshiradi. Kelgusida aksiyadorlik jamiyatlari innovatsion faoliyatini ESG tamoyillari asosida moliyalashtirish mexanizmini rivojlantirish iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash hamda investitsiya muhitini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Isakov M.Y., Ro'ziyeva D.I. *Korxonalarini rivojlantirish strategiyasi. Darslik. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2023.*
2. Umarova N.B. *Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda risklarni boshqarish mexanizmlari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. 2024-yil, № 6.*
3. Hoshimov U.A. *Innovatsion faoliyatga investitsiyalarni jalb qilishning ilmiy-nazariy asoslari. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil ilmiy elektron jurnali. 2025-yil, № 2.*
4. Yuldashev O.S. *Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi. Iqtisodiyot va ta'lim ilmiy jurnali. 2023-yil, № 5.*
5. Abdullayeva M.Q. *Innovatsion rivojlanishda venchur kapitalining roli. Moliya ilmiy jurnali. 2022-yil, № 3.*

DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHALARINI ESG TAMOYILLARI ASOSIDA MOLIYALASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Ollokulova Feruza Mansurovna

Termiz davlat universiteti doktoranti, PhD

Iqtisodiyotda tub islohotlarni amalga oshirishning joriy bosqichida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini samarali boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda iqtisodiyot tarmoqlariga xususiy investitsiyalarni jalb etish, infratuzilmaviy sohalarda davlat va xususiy sektor hamkorligini yo'lga qo'yish, investitsion loyihalarni samarali boshqarishda xalqaro standartlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Keyingi yillarda dunyo iqtisodiyotida barqaror rivojlanish konsepsiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari iqtisodiy loyihalarni baholash va